

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODI

**Xamdamova Lola Olimjon qizi
Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayotiy kechmishlari va ijodi keng talqin qilingan. Shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaga bildirgan shoir va yozuvchilarning fikrlari ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, O'n she'r, Undoshlarim, Uchinchi kitob, Jumhuriyat, "Toshkentnoma" dostoni, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi,

Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjon Respublikasi Ganja viloyati Oqtosh shahrida tavallud topdi. [1]. Boshlang'ich va O'rta ma'lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtdan o'qidi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririylarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar qo'mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Shoirning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlandi uning "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1934) to'plamlari nashr etilishni boshladi. [2-3-4-5]. Otashin shoir mustabid tuzumning jabr-zulumidan chetda qolmad. U birinchi bor 1928-yili qamoqqa olindi. 3 yilga O'zbekistonga surgun qilingan edi. Yozuvchilar uyushmasidan o'chirilib, 1952-yil 22-sentabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shoir Stalin vafotidan keyin ozodlikka erishdi, ijodga qaytib, 1958-yili ko'hna va navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan "Toshkentnoma" lirik dostonini yozdi.[6]. 1960-yilda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozib, unda buyuk munajjim va ma'rifatparvar davlat arbobi Mirzo Ulug'bek obrazini yaratdi.[7]. Shayxzoda Pushkinning "Mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asri", Mayakovskiyning "Juda soz", Shekspirning "Hamlet" hamda "Romeo va Julyetta" tragediyalarini o'zbek tiliga o'girdi. Shoir 1967-yil Toshkentda vafot etdi. 2001-yili o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk hizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma yerda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondag'i quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi (Maqsud Shayxzoda haqida xotiralar sahifasidan).

O'zbek adabiyotining buyuk namoyandalari – G'afur G'ulom va Oybek kabi otashnafas san'atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zuvalasi she'riyat shu'lasi bilan yorilgan kuychi edi. Uning asarlarida buyuk inqilobiy ideallar, jo 'shqin vatanparvarlik tuyg'ulari, chinakam ijodiy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi mujassam topgan (Mirzo Ibrohimov, Ozarbayjon xalq yozuvchisi).

Xurshid Davron SHAYXZODA XOTIRASIGA

Ko'kka ziyrak quloq tutardi
Tutmoq bo'lib tun ovozini,
Qiz yuziga engashgan kabi
Egilardi qog'ozga birdan.
Kechalari oyning shu'lasi
Yoritarkan she'r qog'ozini,
Tutatardi papirosini
Yonib turgan qalami bilan.

1983-yilda yozilgan ushbu satrlarga qarang. Shayxzodaga shunday tarif berilgan: tun ovozini eshitish uchun ko'kka boquvchi, qog'ozga qiz yuziga egilganday egiluvchi bag'ri keng inson.

"Qirq yil muqaddam XX asr o'zbek adabiyotining buyuk siymolaridan biri Maqsud Shayxzodaning jabrdiyda yuragi urishdan to'xtadi. O'tgan davr mobaynida uning tengdoshlari, izdoshlari, shogirdlari va muxlislarining ham aksari hayotdan ko'z yumdi. Shu davrda tug'ilib voyaga yetgan avlod esa uning jo'shqin so'zini eshitmay, nurli chehrasini ko'rmay, tanti qalbining saxovatidan bahramand bo'lmay o'smoqda. Binobarin, ularning Shayxzodani nafaqat buyuk shoir, balki buyuk inson sifatida ham idrok etishi, uning porloq iste'dodi oldida ta'zim qilishi qiyin. Shuning uchun ham bu otashnafas shoirning hayoti va ijodi, qanday noyob siymo bo'lgani to'g'risida yozish biz — zamondoshlarning vazifamizdir" deb yozadi - Naim Karimov.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojiga kata hissa qo'shgan, mustabit tuzumi davrida azob chekkan, shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Uning she'rlarida jo'shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg'ular seziladi. Shayxzodadek ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o'rghanishlik, ulardan habardor bo'lishlik hamda ularni hayotga tadbiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqiyat sari yetaklaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Saparov Jaloliddin Xolbobo ögli. (2023). "MAQSUD SHAYXZODANING TARIXIY MAVZULARDA IZLANISHLARI". *"Conference on Universal Science Research 2023"*, 1(3), 114–116. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/view/352>
2. Tursunboyeva Dilshoda Nazirjonovna. (2023). SHAYXZODA HAYOTIGA NAZAR SOLIB. *Journal of Universal Science Research*, 1(2), 415–422. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/247>